

## 2017 yil

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2017 yilda 1101,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 259,9mln. AQSh dollarini va import 841,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 581,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlarida bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,7 foizga oshib, xizmatlar eksporti esa 26,5 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 98,2 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 76,5 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2017 yilda 719,8 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 214,8 mln. AQSh dollarini va import 505,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### Eksport tarkibi, foizda



### Import tarkibi, foizda






## Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 49,7 foizini mashina va asbob-uskunalar, 24,5 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,9 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 32,2 foizni va sa-farlar xizmati 29,5 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 49,7 foizni mashina va asbob-uskunalar im-porti egallagan. Eksportda esa bu soha 6,5 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (49,4 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.




2017 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosı –581,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –35,3 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –546,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2017 yilda viloyatning tashqi savdo aylanmasi  
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
<b>Eksport</b>	<b>259,9</b>	<b>100,3</b>	<b>100</b>
paxta tolasi	2,4	-	0,9
oziq-ovqat mahsulotlari	128,4	79,9	49,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	7,0	98,7	2,7
qora va rangli metallar	8,8	75,7	3,4
mashina va asbob-uskunalar	16,9	173,7	6,5
xizmatlar	33,5	126,5	12,9
boshqalar	62,9	144,2	24,2
<b>Import</b>	<b>841,7</b>	<b>115,9</b>	<b>100</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	91,7	99,2	10,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	206,0	94,3	24,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2,2	88,9	0,3
qora va rangli metallar	34,8	123,7	4,1
mashina va asbob-uskunalar	418,4	130,8	49,7
xizmatlar	5,4	65,4	0,6
boshqalar	83,2	147,5	9,9


## 2017 yilda viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 30,2 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 69,8 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.




## Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)

### Eksport



### Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 98,2 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69,7 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 28,8 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,8 foizini tashkil qildi), 33,3 foizini mevalar (78,0 foizini), 36,1 foizini uzum (71,0 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 45,2 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (84,0 foizni) tashkil qildi.



Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 26,7 foiz), Rossiya (16,1 foiz), Iroq (5,9 foiz), Xitoy (7,8 foiz), Turkiya (13,4 foiz), Belarus(4,0 foiz) va Eron (4,6 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.

### Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 37,8 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



### Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 123,2 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 74,3 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 32,2 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91,4 foizni, sabzavotlar 42 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56,8 foizni), **uzum 45,8 ming tonnani (85,9 foizni)**, **yer yong'oq 2,1 ming tonnani (74,6 foizni)**, qovun va tarvuz 1155,6 tonnani (2,2 martani) tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.**

**Tel: 71-230-85-23**